

### **Navoiy viloyati Nurota tumanida tashabbusli budgetlashtirish jaroyonada amalga oshirilgan loyihalarga ajratilgan mablag'larning tahlili**

*Mualliflar:*

*Farrux Xusanovich Ikromov,*

*Fazliddin Hamdamov Farhodjon o'g'li,*

*Adham Homidov Ziyodullo o'g'li,*

*TDIU MMT-81K talabalari*

*Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib insonlar tilidan tushmayotgan “OPEN BYUDJET”- 2021-yilda O’zbekistonning boshqa hududlari singari Navoiy viloyati Nurota tumanida ham tezlik bilan ommalashmadi. Fuqarolar mahalliy budget mablag’larining ma’lum qismigacha bo’lgan taqsimotida o’zlari ham qatnasha olishlarining endi iloji bor.*

**«Xalqimiz O’zbekistonda bunaqasi bo’lishi mumkin emas deb  
o’ylayotgan edi»**

«Ochiq budget» mohiyatiga ko’ra, fuqarolar o’zi yashayotgan hududga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalari bilan tashabbusli budgetlashtirishga taklif kiritishlari mumkin. Mahalliy aholi doimo ijtimoiy, yo’l-transport, suv xo’jaligi va muhandislik-kommunikatsiya obyektlarini qurish, modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish va kengaytirishga qaratilgan loyiha va boshqa infratuzilmala obyektlarining yaxshi holatda emasligidan e’tirozda bo’lib kelgan. Ayni shu kabi qator muammolarning endi yechimi mavjud. Quyida biz Nurota tumanida loyiha doirasida qanday ishlar amalga oshirilayotganligini o’rganib chiqamiz.

***Ovoz beravering, loyihangiz g’olib chiqadi.***

**Kalit so’zlar:** Ochiq budget portalı. Participate. Tashabbusli budget. Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi. Erkin qoldiq mablag’lari. Iqtisod qilingan mablag’lar.

### **KIRISH**

Fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda budjet mablag‘larining bir qismini taqsimlash va bu mablag‘larni sarflash yo‘nalishlarini tanlash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyoti tashabbusli budjet deyiladi. Bu amaliyot dunyo mamlakatlarida tajribasida tashabbusli budjet «Participate» (partisipator) budjetlashtirish nomi bilan ma’lum. «Participate» so‘zi ingliz tilida – «qatnashish, ishtirok etish» degan ma’nolarni anglatadi. Tashabbusli budjet fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda mahalliy budjet mablag‘larining bir qismini taqsimlash va bu mablag‘larni sarflash yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratining o‘rnatalishidir.

Mamlakatimiz fuqarolarning budjet jarayonida ishtirok etishi birinchi martta 2018-yil 22-avgustda qabul qilingan «Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekisto Prezidenti qarori bilan ilgari surilgan. Natijada tumanlar budgetidagi qo‘srimcha daromadlarning 10 foizini fuqarolar tomonidan taklif qilingan muammolar yechimini moliyalashtirishga yo‘naltirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu bilan to’xtab qolinmadni va Prezidentning 2021-yil aprelda qabul qilingan «Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida tumanlar (shaharlar) budgetlari umumiylar xarajatlarining 5 foizini fuqarolar tomonidan kiritilgan takliflarni moliyalashtirishga yo‘naltirish belgilandi va tuman-shaharlar budgeti qo‘srimcha daromadlarning 10 foizi o‘rniga endi kamida 30 foizi fuqarolar tashabbuslariga yo‘naltirilishi belgilandi. 2021-yilda Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida 1 mldr so‘mdan kam mablag‘ shakllangan, kelib tushgan takliflar soni 100 tadan ortiq bo‘lgan tuman va shaharlarga respublika budgetidan qo‘srimcha ravishda 117 416 mln. so‘m mablag‘ ajratildi. *Amalga oshirilgan bu o‘zgarishlarning natijalari esa raqamlar orqali quyidagicha ifodalanadi:*

Bildirilgan takliflar soni 2019-yilda 28704 ta bo’lgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2022-yilda 69,7 mingtaga, Shuningdek, ovoz berayotgan fuqarolar soni 2019-yildagi 87,7 mingdan 2022-yil yakunlari bo'yicha 6,7 millionga ko‘paydi. Loyihalar soni esa 1102 tadan 2354 taga oshdi. 2023 yilda takliflar soni 2853 taga yetdi (umumiyl Open Budget portalı orqali 33 489 ta tashabbus uchun 16,2 million ovoz berilgan) va 2.8 trln so’mdan oshiq mablag’ ajratilgan. Loyihani moliyalashtirish uchun yo’naltirilgan umumiyl mablag’lardan 13 674 089 000 so’m mablag’ biz tahlil qilayotgan Navoiy viloyati Nurota Tumani byudjeti hisobiga to’g’ri keladi. Biz bu maqola orqali aynan Navoiy viloyati Nurota tumanida 2021-2023-yil mobaynida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltirilgan mablag’lar hisobotini tahlil natijalarini ko’rib chiqamiz. Tumanda olib borilayotgan ishlarni tahlil qilishdan ko’zlangan maqsad aholining murojaatlari aynan qaysi sohalardagi muammolarga qaratilganini va ushbu dolzarb bo’lgan muammolarni yechimi uchun Nurota tumani byudjetidan qancha mablag’ sarf etilayotgani bilishdan iborat. Oldimizga qo’yilgan maqsadni amalga oshirishda bizga kerakli ma'lumotlarni O’zbekiston Respublikasi “OPEN BUDGET” portalida e’lon qilingan hisobotlardan topishimiz mumkin. Nurota tumani tomonidan Portalda e’lon qilingan hisobotlar bir nechta jadvallar keltirib o’tilgan.

### **Navoiy viloyati Nurota tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo’naltirilgan mablag’lar miqdori<sup>1</sup>**

*1-jadval.(ming so ‘mda)*

T/r	Ko’rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0	20 400	930 102,0
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” ga o‘tkazilgan mablag’lar	1 768 000	7 767 102,0	12 311 816,0
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni	1 480 000	7 125 000,0	9 873 326,0

---

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

## ***Modern education and development***

	moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan			
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	973 596,7	5 417 712,1	9 873 326,0
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	500 000	1 836 900,0	917 683,4
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	288 000	930 102,0	3 368 592,0

“Ochiq budget”ga ajratilgan mablag‘lar asosan ijtimoiy soha va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan bo’lib, ular hisobiga amalga oshirilgan ishlar xususida quyidagicha ma’lumot berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori ijrosini amalga oshirilishini ta’minalash maqsadida tumanda 2021-yildan to hozirgi kunga qadar Tashabbusli budget jarayonida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar umumiyligi 21 846 918 000 so‘mni tashkil qilgan. Yillar kesimida 2021-yil umumiyligi 1 768 000 000 so‘m shakillantirilgan bo’lsa bu raqamlar 2022-yilga kelib baravar ortib 7 767 102 000 so‘mga, 2023-yilda 6.96 baravar ko‘payib 3 368 592 000 so‘mga yetganini ko‘rish mumkin. Mos ravishida tabirlarni moliyalashtirish uchun yo’naltirilgan mablag‘lar ham 1 480 000 000 so‘mdan 9 873 326 000 so‘mga yetgani ko‘rishimiz mumkin. Yillik qoldiq miqdori dastlab mavjud bo‘lmaganligini va ikki yil o’tib 930 102 000 so‘mga yetganini qayd etish lozim.

Navoiy viloyati Nurota tumani tashabbusli budgetlashtirishda 2021-2023-yillarda g’olib bo’lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun tuman budgetidan qancha mablag‘ sarflangan? Ajratilgan mablag‘lar asosan qaysi sohalarga yo’naltirilgani bilan keyingi jadvalda batafsil tanishib chiqamiz.

### **Navoiy viloyati Nurota tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar.<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

## ***Modern education and development***

---

2-jadval(ming so'mda)

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag'		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	<b>Jami</b>	<b>8</b>	<b>14</b>	<b>14</b>	<b>973596,7</b>	<b>5417712,1</b>	<b>9873326,0</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	0	0	12	0	0	1202932,6
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	7	10	8	875455,7	3720338,1	5965628,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	0	1	0	0	31643,6
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	1	1	0	274600,0	1165281,0
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	2	1	98141	796553,4	492126,8
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	0	0	0	0	0	0
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	0	0	0	0	0	0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	0	1	0	0	626220,6	0
9.	Boshqa tadbirlar	0	0	2	0	0	1013713,6

Navoiy viloyati Nurota tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan umumiyligi 9 ta turdag'i tadbirlar doirasida jami bo'lib 32 ta loyiha amalga oshirilgan va ularni moliyalashtirish uchun budgetdan 16 264 634 800 so'm mablag' sarflangan.

Jadvaldagi ma'lumotlarda 2021-yilda loyihalari soni 8 ta 2022-yilda 6 taga oshgan 2023-yilda yana bir bor 14 tani tashkil etganligi aks ettirilgan.

2022-2023-yillarda amalga oshirilgan loyihalar 2021-yilga nisbatan teng barobarga o'sgani va fuqarolarda tashabuslar oshganini ko'rsatdi. Raqamlar mazmunan Nurota tumanida ijtimoiy soha muammolari aholini e'tiborida bo'lib kelganligini va asosan umumta'lim maktablari bilan bog'liq muammolar ko'p ekanligini ko'rsatmoqda.

Tumanda aholi o'rtaida asosan ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lган va umumiyoq o'rta ta'lim hisoblangan maktablarning ijtimoiy infratuzilmasini mustahkamlash (rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash) uchun takliflar bildirilgan. Natijada mahalliy budget tomonidan ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun jami tashabbusli budgetlashtirishda o'z loyihasi bilan g'olib chiqgan jami 25ta umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun mahalliy budgetning loyihaга ajratilgan jami mablag'idan 10 561 421 800so'm mablag' sarflangan. Shuningdek uch yillik tashabbusli budgetlashtirish jarayonida Nurota tumani fuqarolari tomonidan ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash va ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari kabi loyihalarga berilgan takliflar g'oliblikni qo'lga krita olmagan yoki umuman taklif berilmagan.

Natijalarni o'rganishdan olinayotgan xulosalardan kelib chiqib bir kalendar yilda 2 mavsum o'tkaziladigan tashabbusli budgetlashtirish loyihariga ovoz berishda 1-mavsumda faqat ta'lim sohasiga takliflar kiritishni yo'lga qo'yish va 2-mavsumda ijtimoiy soha va boshqa muammolarning yechimi uchun takliflar qabul qilishni sinov tariqasida amaliyatda tadbiq qilish taklifini ilgari bildirib o'tish joiz.

Biz uchun navbatdagi vazifa Nurota tumanida mahalliy budgetidan loyihalar uchun ajratilinayotgan mablag'lar aynan qaysi manbalardan shakillanitirilganligini ko'rib chiqamiz.

Navoiy viloyati Nurota tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari jadval asosida o'rganilganda 2021- yildan 2023-yil oralig'ida keltirilgan hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqamiz.

## ***Modern education and development***

Tahlil jarayonini amalga oshirishimizda biz uchun keyingi jadval asosiy ko'rsatkichlarni taqdim etadi.

### **Navoiy viloyati Nurota tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari.<sup>3</sup>**

*3-jadval(ming so'mda)*

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>		<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar			5 630 202	7 417 554
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		449 000	1 836 900	1 285 100
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	37 000	266 400	358 100
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	412 000	1 570 500	
	Iqtisod qilingan mablag'lar			461 162
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan	1 319 000		3 148 000
	PQ-409ga asosan			
	PQ-197ga asosan		300 000	
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		1 586 600	7 767 102	12 311 816

2021-yil uchun shakllantirilgan Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'ları umumiy 1 768 000 000 so'm tashkil etgan . Ajratilgan mablag'lardan 449 000 000 so'm tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratilingan mablag'lar hisobiga to'g'ri kelgan. Qolgan 1 319 000 000 so'm mablag' O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 sentabrdagi PQ-5250-sonli qaroriga asosan budgetdan ajratilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keladi. Mazkur yilda tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarining

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

5 foiz qismi miqdorida mablag' ajratilmagan. Endi keyingi 2022 yil natijalarini o'rghanib chiqamiz.

2022-yilda jamg'armasi mablag'larining shakllanishi ko'ra umumiy 7 767 102 000 so'mni tashkil etgan. Bu mablag' o'tgan yilidan 7 barobarga ortganini ko'rishimiz mumkin. Ajratilgan mablag'lardan 1 836 900 000 so'm tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratilnadijan mablag'lar hisobiga to'g'ri kelgan.

Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2 815 101 000 so'mdan umumiy 5 630 202 000 so'mni tashkil etgan. Mablag'larning qolgan qismi yil boshiga qoldiq 266 400 000 so'm va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2022-yildagi PQ-197-sonli qaroriga asosan byudjetdan ajratilgan 300 000 so'm mablag'lar jamg'armaga o'tkazilgan. Bu yili erkin qoldiq mablag'lar ham 2021-yilga nisbatan 7,2 barobarga oshgan.

2023-yilda Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'lariga umumiy miqdorda 12 311 816 000 so'm mablag' o'tkazilgan. Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar umumiy 7 417 554 so'm miqdorda yo'naltirilgan bo'lib 2022-yilga nisbatan 31,7 %ga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar umumiy 1 073 400 000 so'mni tashkil etgan.

Erkin qoldiq mablag'lari 358 100 000 so'm miqdorda bo'lib 2022-yilga nisbatan 1,6 barobarga o'sgan. Aynan shu yilda oldini yillarda mavjud bo'lmagan yana bir manba paydo bo'lgani alohida ta'kidlab o'tish joiz. Oldingi yillardan farqli ravishda Jadval ma'lumotlarida 2023 yil ustunida Iqtisod qilingan mablag'lar mavjud bo'lib jami 461 162 000 so'mni tashkil etmoqda. Qolgan mablag' O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 sentabrdagi PQ-5250-sonli qaroriga asosan budgetdan 3 148 000 so'm yo'naltirilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keladi.

## ***Modern education and development***

2021-2023-yillarda yuqoridagi mablag'lar hisobiga Navoiy viloyati Nurota tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalarning aynan qaysi takliflarni moliyalashtirishga yonaltirilganini va bu takliflar qancha ovoz top'lagan holda g'olib bolganini 4-jadvalda bat afsil ko'rib chiqamiz.

### **Navoiy viloyati Nurota tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi<sup>4</sup>**

(4-jadval)

T/r	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to‘plagan ovozlar soni</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag’ miqdori (ming so’mda)</b>
<b>2021-yilda</b>			
1.	5-maktabga Musiqa asboblari, jihozlar, kompyuter jamlanmasi	304	100 000
2.	42-maktab yotoqxona uchun jihozlar	254	210 000
3.	Suvliq MFY aholisiga toza ichimlik suvi	186	500 000
4.	4-maktab kompyuter jihozlari	55	50 000
5.	58-maktabga kompyuter jamlanmasi	37	120 000
6.	5-maktabga ingliz tili xonasiga zamonaviy komyuter jihozlari	29	200 000
7.	13-maktab toza ichimlik suvi uchun artizan quduq	14	100 000
8.	13-maktab sinf xona polini almashtirish	13	150 000
9.	37-maktab sinf xonalarni polni yangilash	10	50 000
	<b>JAMI</b>	<b>902</b>	
<b>2022-yilda</b>			
1.	47-umumiyo rta ta’lim maktabini temir to’siq bilan o’rash	3232	100 000
2.	Barkamol avlod bolalarmarkazining moddiy texnika bazasini mustahkamlash.	2939	550000
3.	16 maktab atrofini temir panjara bilan o’rash, eski binoni to‘liq joriy tamirlash	2797	670000

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

## ***Modern education and development***

---

4.	Kutubxona markazida moddiy texnika bazani yangilash	2716	250 000
5.	27-sonli umumta'lim mакtabiga sport maydoni	2655	750 000
6.	47-sonli umumta'lim mакtabi atrofini temir to'siq bilan o'rash,	2635	400 000
7.	14-umumiyl o'rta ta'lim mакtabini moddiy texnik bazasini yaxshilash	2603	450 000
8.	48-umumtalim mакtabi atrofini temir panjara bilan o'rash	2522	650000
9.	15-maktabni atrofini temir panjara 400 metr bilan o'rash	2424	600000
10.	Okkula kishlok kabristonini atrofini urash	2328	630 000
11.	Joriy ta'mirlash	2297	410 000
12.	Mustaqillik MFYda joylashgan binosini joriy ta'mirlash	2294	305 000
13.	53-son umumta'lim mакtabi hududini beton va temir panjara bilan o'rash	2293	160 000
14.	19-maktabning isitish tizimini ta'mirlash	2104	300 000
	<b>JAMI</b>	<b>35 839</b>	

### **2023-yilda**

1.	15-maktabda sun'iy qoplamali stadion qurish	3554	1 000 000
2.	18-sonli xorijiy tillar mакtabi moddiy texnika bazasini yangilash	3341	1 080 000
3.	Ko'ktepa qishlog'idan katta yo'lgacha 2200 metriga asfalt yotqizish	3289	1 300 000
4.	Temirqovuq MFYda sun'iy qoplamali stadion qurish	3252	1 200 000
5.	Qadoq MFYda maktabgacha ta'lim muassasasi qurish	3188	1 200 000
6.	39-sonli umumta'lim mакtabi atrofini temir oanjara bilan o'rash	3181	1 300 000
7.	Tuman tibbiyat birlashmasiga mebel jihozlar sotib olish	3074	1 200 000
8.	27-maktab moddiy texnika bazasini yangilash	2925	600 000

## ***Modern education and development***

---

9.	6-maktab moddiy texnika bazasini yangilash	2905	800 000
10.	50-maktabda qo'shimcha sinfxonalari qurish	2904	800 000
11.	Maktab atrofini o'rash va tamirlash ishlari	2895	600 000
12.	2-son kasb-hunar maktabi moddiy texnik bazasini yangilash	2642	500 000
13.	10-maktab moddiy texnika bazasini yangilash	2538	750 000
14.	52-umumta'lim maktabi moddiy texnika bazasini yangilash	2281	497 785.5
	<b>JAMI</b>	<b>41 969</b>	

Aholi orasida yangilikga bo'lgan qiziqish kamligidan yoki ishonchning yo'qligi sababli tashabbusli budget loyihasi 2021-yilda 3 xil usulda (**onlayn ovozlar** 86ta, **oflayn ovozlar** 64ta va **SMS orqali ovozlar** 532ta) ovoz yig'ilgan bo'lsa ham umumiylar berilgan ovozlar soni 902 tani tashkil etgan. Lekin, shunga qaramay aholi o'z ko'zi bilan tumanda bo'layotgan o'zgarishlarni va erishilgan natijani ko'rgan. 2022-yilga kelib tashabbusli budget jarayoniga o'zining sezilarli darajada qiziqishini bildirgan va g'olib bo'lgan 14 ta takliflar uchun berilgan ovozlar soni 35 839 ta ni (shundan 999tasi **onlayn ovoz**) tashkil qilishiga erishilgan. Bu deyarli 400 marotaba ko'p degani. Aynan shu yildan offline ovoz qabul qilish to'xtatilganligaga e'tiboe qaratish kerak. 2023-yilga kelib ham fuqarolar to'xtab qolishmadi. Tashabbusli budget jarayonida faol ishtirokini namoyon etishdi va 14 ta g'olib bo'lgan loyiha uchun 41 969 ta ovoz to'plashga erilishdi.

2021-yilda ovozlarning asosiy qismi maktab loyihalari berilgan bo'lsada, eng ko'p mablag' Suvliq MFY aholisiga toza ichimlik suvi loyihasiga sarflangan. 2022-yilda ham aynan shu kabi loyihalar ko'p ovoz to'plagan va g'olib bo'lgan va 27-sonli umumta'lim maktabiga sport maydoni loyihasiga eng ko'p 750 000 000 so'm miqdorda mablag' yo'naltirilgan. 2023-yilda esa eng kop ovozlar qatoriga maktablar loyihalari bilan birga Ko'ktepa qishlog'idan katta yo'lgacha 2200 metriga asfalt yotqizish, Temirqovuq MFYda sun'iy qoplamlali stadion qurish kabi loyihalar ham qo'shilib, to'plangan ovozlar orasida yuqori ko'rsatkich qayd etgan. Bu yili esa eng ko'p mablag'lar yonaltirilgan takliflar

Ko'ktepa qishlog'idan katta yo'lgacha 2200 metriga asfalt yotqizish va 39-sonli umumta'lim maktabi atrofini temir oanjara bilan o'rash loyihalari bo'lib, ularning har ikkisiga ham 1 300 000 000 so'mda mablag' ajratilgan.<sup>5</sup>

### **Xulosa**

"Ochiq byudjet" dan shuni tushunish mumkinki mamlakatimiz fuqarolari orasida amalga oshirilayotgan ishlarga bo'lgan qiziqish va ishonch ortib bormoqda va bu jarayonlarda o'zining yashab kelayotgan tumandagi asosiy muammolarni yechimiga qaratilgan takliflari bilan ishtirok etish istagi paydo bo'lmoqda. Xalqimiz tashabbusli budget jarayonida yildan yilga faol qatnashayotgani va bu jarayonga be'tibor emasligini ko'rsatib beryabdi. Biz tashabbusli budgetlashtirish jarayonida nafaqat Navoiy viloyati Nurota tumanigi muammolar balki, Respublikamizning barcha hududlaridagi muammolar bartaraf etib borilayotgani ko'ryapmiz. Bu jarayon xalqimizning farovon hayoti, yaxshi ta'lim maskanlarida ilm olishi, toza ichimlik suvidan foydalana olishi, chekka hududlarimizda ham yo'llarimiz ravon bo'lishi kabi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.

---

<sup>5</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳукуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.

21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқукий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. IB Masharipov. Relevance of civil society in the modern world, attitude and solutions. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. 2023